Holati: Ijobiy
Direktor: Xolliyev Baxtiyor Bozorovich
Sana: 06-03-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

201290 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shaxri, Yangixayot tumani, Sholikor 3-tor ko‘chasi Mavjud “Sex binolari”ning yuridik xujjatga ega bo‘lgan qismini, rekonstruksiya qilish (ta’mirlash)	
Buyurtmachi:	«JINBOHAL TECHNOLOGY TASHKENT CO LTD» MCHJ
Bosh loyihachi:	"IDEAL PROJECT" mas’uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Aniqlanmagan
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	006904

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Buyurtmachi tomonidan loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalash topshirig`i.

1.2. Toshkent shahri, Yangihayot tumani, Qurilish Bosh boshqarmasining 30.08.2021 yildagi 1726292-11056-sonli Ruxsatnomasi.

1.3. 21.09.2021 yilda berilgan 1726-1726292-28575 sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Toshkent shahar ekologıya va atrof muhıtnı muhofaza qılısh boshqarması Davlat ekologik ekspertizasining 05.03.2024 yildagi 01-02/14-201- sonli xulosasi.

1.5. Toshkent shahri Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 04.12.2021 dagi 33003 -sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. RP (IL - ishchi loyiha). Umumiy tushuntirish xati.

2.2. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.3. Mavzu bo‘yicha ilmiy-texnik hisobot: «PROEKT STROY EKSPERTIZA» MChJ tomonidan amalga oshirilgan bir qavatli ishlab chiqarish (sanoat) binosi va 2 qavatli binoning yuk ko‘taruvchi va o‘z-o‘zini ko‘taruvchi qurilish konstruksiyalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish va instrumental tekshiruvlar - 2021 y.

2.4. Qurilish maydonining muhandislik-geologik shart-sharoitlari haqida «GEO ENGINEERING LOYIHA» MChJ tomonidan berilgan xulosa – 2022 y.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Ishchi loyihaning yechimlari:

- Hisoblangan zilzila bardoshlilik - 8 ball
- Shamol bosimining tezligi – 38 kg/m2
- Qor qoplamining og‘irligi – 50 kg/m2
- Tuproq(grunt)larning muzlash chuqurligi – 0,7 m

Asos sog‘ tuproqsimon (lyoss) I turdagi o‘ta cho‘kuvchan qumoqli gruntdan iborat bo‘lib, uning beton va temir-beton qurilma (konstruksiya)larga nisbatan ta’siri agressiv emas.

Er osti suvlari yer yuzasidan 2,6-2,7 m chuqurlikda joylashgan bo‘lib, portlandsementida me’yoriy(narmol) singuvchanlikka ega betoniga nisbatan bir oz agressivdir.

3.2. Bosh reja.

Bosh rejada quyidagi bino va inshootlar ko’zda tutilgan:

A, B va C bloklari.

Qurilish maydoni – 3504 m2

Avtoturargox maydoni – 40 m2

Ko'kalamzorlashtirish maydoni - 50 m2

3.2. Arxitektura va Konstruktiv yechimlari.

Taqdim etilgan materiallar bo‘yicha quyidagi binolarning loyihalari ko‘rib chiqiladi (A, B va C bloklari):

O’rganilayotgan blok (bino)larning) xususiyatlari.

Binolar ma’muriy va ishlab chiqarish (sanoat) binosi vazifalarini o‘taydi.

Qavatlar: chodirli-mansardali (uchinchi qavat) 2 qavatli bino - B blok (ABK) A-G/1-3 o‘qlarida o‘lchami 17,749×13,399 m; 1-qavat balandligi - 3,964 m; 2-qavatniki - 3,965 m; chodir-mansardaniki - 3254 m; 1-16 / A-V o‘qlarida 41,9 × 85,24 m o‘lchamga ega bir qavatli bino - A blok (sex) – 2 qavatli qism omborxona va ofis xonlaridan iborat.

Materiallar va konstruksiyalarning xususiyatlari.

A bloki

Metall sinch (karkas).

Paydevorlar - tasmasimon va ustunsimon quyma temir-betondan iborat.

Binoning poypeshlari (plintlari) gazbeton bloklardan yasalgan.

Binoning asosiy konstruksiyalari yuk ko‘taruvchi ko‘ndalang va bo‘ylama metall konstruksiyalar - tashqi qatorlarning T- simon po‘lat ustunlari, metall orayopmalar.

Ustunlar, to‘sinlar, bog‘lamalar, stropil fermalar metaldan.

Devorlari o‘ng tomondan profnastil (gofrokarton)dan qilingan.

Qoplama (tom yopmasi) metall konstruksiyalardan.

Uyning tomi profnastillar bilan qoplangan.

Tekshiruvni o‘tkazish vaqtida(ayni vaqtda) ob’ekt ishga tushirilmagan, qo‘riqlanadi, binoda montaj (yig‘ish), osma kran elementlarini bo‘yash, ishga tushirish ishlari olib borilmoqda.

Binoning tashqarisida beton to‘shama mavjud.

B bloki.

Karkas quyma temir-betondir.

Poydevorlar beton bloklardan iborat (FBS); tasmasimon quyma temir-beton.

Barcha qavatlarning tashqi devorlari qalinligi 300 mm bo‘lgan penobloklardan yasalgan, sement-qumli eritma ustiga yotqizilgan, devorlarning ichki va tashqi yuzasi suvolmagan.

Qavatlar ichidagi to‘siqlar (bo‘linmalar) sement-qum aralashmasidagi eritma ustiga penobloklarni yotqizish asosida yasalgan, chodir-mansarda qavatidagi bo‘linmalar(to‘siqlar)

esa yog‘och panjara ustiga gipsokartanni qoplash orqali qilingan.
Ustunlar, to‘sinlar, zilzilabardosh belbog‘lar quyma temir-betondan yasalgan.
Tepadon (to‘siqlaar) 4Ø16AIII markadagi armaturadan tayyorlangan metaldan iborat.
Orayopmalar zavoda tayyorlangan ichi bo‘sh temir-beton plitalardan iborat.
Zinapoya va maydonchalar quyma temir-betondir.
Oyna ramkalari - o‘yiqlarda hali o‘rnatilmagan.
Uy tomi metall-cherepitsa.
To‘shama (styajka) 1,5 m kenglikdagi beton.
Suv oqish elementlari hali tugallanmagan.
Tekshiruv vaqtida ob’ekt ishga tushirilmagan, qo‘riqlanadi, ichki va tashqi pardozlash ishlari hali tugallanmagan va hokazo.
C bloki.
Bino bir qavatli, to‘g‘ri to‘rt bo‘rcha shaklda, rejada ko‘rsatilishicha o‘lchamlari 1-3/A-B o‘qlarida 9,50×3,40 m ga teng, balandligi - 3,10 m (shiftdan to polgacha).
Bino quyma temir-beton qo‘shimchalar bilan g‘ishtdan ko‘tarilgan.
Paydevorlar – tasmasimon quyma temir-beton, beton sinfi - B15.
Devorlari qalinligi 380 mm bo‘lgan g‘ishtlardan.
Tom - metall konstruksiyadan iborat.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Yong‘in xavfsizligi.

Ochiq sex (sanoat karxonasining kichik ishlab chiqarish bo‘limi)ning g‘arb tomonidan unga tutashtirilgan holda quriladigan mebel sexining asosiy bir qavatli binosi BR (bosh reja) bo‘yicha №1, alohida to‘rgan ma’muriy-maishiy (ABK) loyihalari ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etildi.
Sexning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalari “sendvich” panellaridan yasalgan metall devorlardir. Ma’muriy-maishiy majmuaning devorlari g‘ishtdan, orayopmalari temir-beton plitalardan ishlangan. Ma’muriy-maishiy majmuaning birinchi qavatida ofis xonlari, ikkinchi va chodir-mansardda da yashash uchun xonlar mavjud. Binolardan favqulodda chiqish(evakuatsiya) yo‘llari soni me’yoriy (standart) talablarga javob beradi. Chiqish (evakuatsiya qilish) yo‘llarining devor va shiftlari yonmaydigan materiallar bilan pardozlanadi (qoplanadi). Sex va ma’muriy-maishiy majmuaning binolarida avtomatik ravishda ishlaydigan va odamlarni yong‘in xavfi haqida xabardor qilish uchun signalizatsiya o‘rnatish nazarda tutilgan. Ma’muriy-maishiy majmuaga va sexga o‘t o‘chirish mashinalari faqat janubiy-sharqiy tomondan o‘tishi mumkin.

4.2. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.
Binoning ichki va tashqi qismida energiya tejash uchun mo'ljallangan sensorli LED chiroqli panellar o‘rnatilgan;
Ushbu obyektda tomiga quyosh panellari o’rnatiladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar ekologıya va atrof muhıtnı muhofaza qılısh boshqarması Davlat ekologik ekspertizasining 05.03.2024 yildagi 01-02/14-201- sonli xulosasi.
5.2. Toshkent shahri Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 04.12.2021 dagi 33003 -sonli xulosasi.

5.3.Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

-- B bloki bo‘yicha: loyihani quyidagilar bilan to‘ldirildi:

- devorlarni yoyilgan holati bilan;
- bo‘linmalar(to‘siqlar) konstruksiyalari;
- AC4 varag‘ida (1-1-kesim) tomning tarkibini ko‘rsatildi.
- “Sendvich” panelli devorlarni karkas ularni joylashtirish va maxkamlanish, xamda materiallar sarfi.
- Tomqoplama materiali sarfi.

-- Otmostka (trotuar) kozda tutilgan.

- Mebel sexida avtomatik ravishda yong‘inni o‘chirish qurilmasi o‘rnatilishi nazarda tutiladi, asos: ShNK 2.04.09-07, 12-ilova, O’zbekiston Respublikasi Qurilish vazirining 28.09.2018 yildagi 205-son buyrug‘i.

-- Sexning (BR bo‘yicha №1) g‘arbiy tomonidan o‘t o‘chirish mashinalarining o‘tish imkoniyatini ta’minlanadi, asos: 3.46-band. SNiP II-89-80*.

-- Sex binosining barcha metall konstruksiyalarini standartlashtirilgan yong‘in bardoshlilik chegaralariga keltirish, loyiha vazifasiga ko‘ra ularni yong‘indan himoya qilishni ta’minlanadi, asos: 4-jadval, ShNK 2.01.02-04.

6.3. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

7. Xulosalar.

7.1. Toshkent shahri, Yangixayot tumani, Sholikor 3-tor ko‘chasida Mavjud “Sex binolari” ning yuridik xujjatga ega bo‘lgan qismini, rekonstruksiya qilish” ishchi loyiha ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, keyingi ko'rib chiqishga va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ekspert mutaxassislar:
Konstrukciya qismi. Rizaev T.A. , Yong‘in xafsizlifgi. Zyuz.V.V.
Energiya samaradorligi: Sultonov K.